

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ESHITISHDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARDA KORREKSION

ISHLARNI TASHKIL QILISH SHARTLARI

Fayzullayeva Nodira Tursunbayevna

Nizomiy nomidagi TDPU Surdopedagogika

ta’lim yo’nalishining 1-kurs magistranti

Kalit so‘zlar: kognitiv faoliyat usullari, ko’rgazmali modellar, differensirlashgan yondashuv, eshitish funksiyasi holati, nutqni rivojlanganlik holati, og’zaki nutqni idrok etish, takrorlash darajasi.

O‘zbekistonda bo‘layotgan islohotlar sohalar rivojiga qaratilgan bo‘lib, ta’limdagi islohotlar alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ijtimoiylashuv imkoniyatlarini ham kengayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Unga doir huquqiy-meyoriy hujjatlari ishlab chiqilib, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining davlat va nodavlat tarmog‘i kengaytirildi, moddiy texnika bazasi mustahkamlandi. «Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi»da: «Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish, maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish» masalasi ustuvor etib belgilanishi zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar, ta’lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullari asosida eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning boshlang‘ich ta’limga muvaffaqiyatli tayyorlash uchun zamin yaratdi.

Bolaning amaliy va kognitiv faoliyat usullarini faol ravishda o‘zlashtirishi tafakkurni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Tasviriy-harakatlikdan tasviriy-obrazli va nutqiy fikrlashga o‘tish tayanch-tadqiqot faoliyati tabiatining o‘zgarishi, tayanishning sodda uslublari - urinishlar o‘rnini yanada maqsadli vizual, so‘ngra aqliy yo‘nalish bilan almashtirish bilan bog‘liq. Maktabgacha yoshdagi fikrlashni rivojlantirishda ularning muhim aloqalari va munosabatlari qayta tiklanadigan turli xil hodisalarni ko‘rgazmali modellashtirish usullarini o‘zlashtirish muhim rol o‘ynaydi. Ko‘rgazmali modellar - bu bolalar faoliyatining har xil turlarida ishlab chiqilgan, bolaning aqliy qobiliyatlarini shakllantirishning muhim vositasidir. L.Vygotskiyning fikriga ko‘ra bolaning faoliyati umumlashtirilgan tasavvurlarga



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

asoslanib, ularni saqlash xotiraga bog'liqdir va maktabgacha yoshdagi bolalarning ong markazida turadi.

Differensial yondashuv umumiy va (Y.K.Babanskiy, P.P.Blonskiy, A.A.Budarniy, N.F.Geyjan, B.S. Gershunskiy, K.M. Gurevich, T.K. Donskaya, O.B. Eliseev, A.A. Kirsanov, T.Y. Stulpinas, Y.P. Chernyshov) korreksion pedagogikada (P.M.Boskis, T.A. Vlasova, L.N. Graborov, G.M. Dulnev, A.I. Dyachkov, V.I. Lubovskiy va boshqalar) keng qo'llaniladi. Talaffuzni shakllantirish bo'yicha ish tizimi kar va zaif eshituvchi bolalarda differensial yondashuvga asoslanadi (M.A. Aleksandrovskaya, E.I. Andreeva, I.G. Bagrova, P.M. Boschis, K.A. Volkova, O.A. Denisova, V.L. Kazanskaya, E.P. Kuzmicheva, E.I. Leonhard, T.V. Pelymskaya, A.N. Pfafenrodt, E.P. Mikshina, F.F.Rau, N.F. Slezina, N.I. Shelgunova, N.D. Shmatko, E.Z.Yaxnina va boshqalar).

O'qitishda mavjud va faol qo'llaniladigan differensirlashgan yondashuv o'quvchilarning individual xususiyatlarini ochib berish va o'quvchiga mos keladigan ta'lim shakllari orqali shaxsiy rivojlanish uchun eng qulay sharoitlarni tanlashda yordam berish uchun mo'ljallangan.

Eshitishda nuqsoni bor bolalarni o'qitish jarayonidagi zamonaviy yondashuvlar bugungi kunda bu toifa o'quvchilarning ijtimoiylashuvidagi ko'plab masalalar yechimi uchun xizmat qildi. O'z davrida R.M. Boskisning tajribalari, bunday nuqsonli bolalarning umumiy va nutqiy rivojlanishiga eshitish qobiliyatining pastligi to'siq bo'lishini hisobga olgan holda, bu bolalarning kamchiliklarini ilmiy nuqtai nazardan ishlab chiqishga va isbotlashga imkon berishi tadqiq qilingan. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar muloqot vaqtida saqlanib qolgan eshitish qoldig'i yordamida nutqni turlicha qabul qilishadi, ammo ulardagi buzilish darajasi shunchalik ahamiyatliki, maxsus o'qitish jarayonida o'quvchilarda talaffuzni shakllantirishda bir qator ko'rsatkichlar hisobga olinishi zarur:

- eshitish funktsiyasi holati,
- nutqni rivojlanganlik holati,
- og'zaki nutqni idrok etish va takrorlash darajasi,
- individual psixofizik xususiyatlar (E.P.Kuzmicheva, E.Z.Yaxnina).

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning normada rivojlanishiga nafaqat so'zning nutqdagi fonetik tizimining buzilishi emas, balki grammatik tuzilishidagi buzilish ham to'sqinlik qiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqiy rivojlanishidagi yuqoridagi jihatlari ko'plab xorij surdopedagoglari (V.I.Beltyukov,



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

R.M.Boskis, T.A.Vlasova, A.G.Zikeev, K.G.Korovin, F.F.Rau, V.A.Sinyak, K.Braukman, G.Xeeze, M.Zeeman va boshqalar) ishlarida ham tadqiq qilingan. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitishning dastlabki bosqichida gap o'rniga uni o'rnini bosuvchi maxsus iboralar yoki so'zlardan foydalangan ma'qul. Bu xususiyatlar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktablarida tilning maxsus "Nutq o'stirish" dasrlarining pedagogik jarayonida yuzaga keladigan muammo va talablarini aniqlab beradi. Bu maxsus bo'lim darslarida o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytirish va uni nutqda bog'lab ishlatishni o'rgatish asosiy vazifa hisoblanadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarnig nutqini o'ziga xos tomonlarini o'rganilishi, ular bilan olib boriladigan pedagogik va psixologik korreksion ishlar mazmunini belgilab olishga imkon beradi.

O'zbekiston surdopedagoglari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda (N.Sh.Bekmurodov, X.M.Gaynutdinov, F.J.Alimxodjaeva, U.Y.Fayzieva, N.J.Dadaxadjaeva, F.U.Qodirova, D.Nazarova, Z.Mamarajabova, D.Yakubjanova, Z.Urunova, M.Xamidova, M.Abdullaeva, M.Qodirov va boshqalar) eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi jarayonini takomillashtirish orqali ularning ijtimoiy moslashuvlari darajasini ko'tarishning usul va vositalari asoslab berilgan.

Talaffuzga o'rgatish jarayoni nutq o'stirish tizimining ajralmas qismi hisoblanib, atrofda qilargacha tushunarli bo'lgan talaffuzni shakllantirish, hamda muloqotda og'zaki nutqdan foydalanish ehtiyojini yuzaga keltirishni nazarda tutiladi.

So'zlashuv nutqni daktil va yozma nutq yordamida rivojlantirilgani sababli, muloqot ehtiyojidan kelib chiqqan holda mashg'ulot uchun nutqiy material tanlanib, so'zlar zahirasi hamda muomala qilish imkoniyati kengaytiriladi. Talaffuzga o'rgatish mashg'ulotlariga esa, luqat aniq talaffuzni va nutq tezligini rivojlantirish zarurati va izchilligidan kelib chiqqan holda tanlanadi.

Talaffuzga o'rgatish uchun beriladigan material oddiydan murakkabga tamoyili asosida, kontsentrik tuzilishda berilib, ta'limning keyingi bosqichlariga kelib, asosiy tovushlar talaffuzi o'zlashtirilishi ta'minlanadi. (Rau F.A., Leongard E.I., Rau F.F.) Talaffuzga o'rgatish chog'ida avval daktil shaklida o'zlashtirilgan so'zlar va iboralar tanlanadi. Masalan, «r» tovushini talaffuz etishga o'rgatish jarayonida sistemalilik, izchillik, tushunarlilik kabi didaktik tamoyillarga asoslanib, bolalar tomonidan o'zlashtirilgan, ya'ni so'zning harf tarkibi va ma'nosi tanish bo'lgan lug'at tanlanadi. Chunki bola uchun birdaniga ham tovushni o'zlashtirishi, uni so'zda talaffuz etishi,



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

so'zdagi harflar ketma-ketligini bilishi, ma'nosini tushunishi juda mushkuldir.

Talaffuzga o'rgatish uchun ma'lum darajada cheklangan hajmdagi lug'at olinganligi sababli, talaffuz qilinadigan so'zlar puxta tanlanishi, talaffuzi yaxshi yo'lga qoyilishi, keyinchalik muloqotda bemaolol ishlatilishi kerak. So'zlar kar bolalar ta'limi dasturining nutq o'stirish bo'limidan olinadi. Nutqiy material doimiy ravishda va izchillik bilan talaffuz etilib borilsa, atrofda qilargacha uning tushunarligi oshadi va shunday qilib bolalarda nutqiy muloqotga bo'lgan ehtiyoji o'sib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. М.: Прогресс, 1985.
2. Дефектология: современные проблемы и перспективы развития. – Саратов: изд-во СГУ, 2014. –С.8 – 9.
3. Дефектология... – Малофеев Н.Н. Специальное образование в России и за рубежом. В 2-х частях. –М.: Печатный двор, 1996.
4. Isoqjonova D. M. THE ROLE OF THE PRINCIPLE OF EXHIBITIONISM IN THE DEVELOPMENT OF VOCABULARY WEALTH OF DEAF STUDENTS IN NATIVE LANGUAGE LESSONS //FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES. – 2023. – Т. 2. – №. 18. – С. 146-149.
5. Урунова З. Н. ТЕХНОЛОГИЯ ИНТЕРАКТИВНОГО ПОДХОДА В ФОРМИРОВАНИИ КОГНИТИВНО-РЕЧЕВЫХ ЗНАНИЙ И УМЕНИЙ У УЧАЩИХСЯ С НАРУШЕНИЯМИ СЛУХА //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2022. – Т. 9. – С. 122-125.
6. Nizamitdinovna U. Z., Mukhlisa A. TECHNOLOGY OF DIFFERENTIATED APPROACH IN THE FORMATION OF COGNITIVE-SPEECH KNOWLEDGE AND SKILLS IN STUDENTS WITH HEARING IMPAIRMENTS //Academia Science Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 04. – С. 1018-1021.
7. Bannayeva M. O. Q. Eshitishida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarning matematik kompetensiyalarini shakillantirish //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 759-763.
8. Rahmatova S. METHODOLOGY OF TEACHING NATIVE LANGUAGE TO HEARING IMPAIRED CHILDREN IN PRIMARY SCHOOL //Solution of social problems in management and economy. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 46-49.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

9. Shirin S. R. MAKTABGACHA YOSHDAGI ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI //Молодые ученые. – 2023. – Т. 1. – №. 14. – С. 84-86.

10. qizi Isoqjonova D. M. et al. ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISH TIZIMINI YANA TAKOMILLASHTIRISH //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 16. – С. 891-895.

11. Subanova B. Q. Parental Cooperation In Inclusion Of Hearing Impaired Children In Inclusive Education //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2023. – Т. 11. – С. 13-16.



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



E-CONFERENCE
SERIES